

Muhiddinov Akobirxon Nurullo o‘g‘li

Toshkent amaliy fanlar universiteti

Bank va moliya kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida islom bank tizimini joriy etishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilingan. Tadqiqotda islom moliyasining asosiy tamoyillari, xalqaro tajriba, mamlakatimizda 2025–2026-yillarda qabul qilingan qonunchilik islohotlari, shu jumladan 2026-yil 27-mart kuni Prezident tomonidan imzolangan islomiy bank faoliyatini joriy etish to‘g‘risidagi qonun atroflicha yoritilgan. Shuningdek, islom bank tizimini joriy etishning istiqbollari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari islom moliyasining mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalar jalb qilish, moliyaviy inklyuzivlikni oshirish va yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirishdagi salohiyatini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *islom bank tizimi, islom moliyasi, murobaha, muzoraba, mushoraka, ijara, shariat kengashi, moliyaviy inklyuziya, investitsiya, bank-moliya islohotlari.*

Аннотация: *В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты внедрения системы исламского банкинга в Республике Узбекистан. В исследовании освещены основные принципы исламских финансов, международный опыт, а также законодательные реформы, принятые в 2025–2026 годах, в частности закон о введении исламской банковской деятельности, подписанный Президентом 27 марта 2026 года. Кроме того, разработаны предложения относительно перспектив внедрения исламской банковской системы, существующих проблем и путей их преодоления. Результаты исследования демонстрируют потенциал исламских финансов в привлечении инвестиций, повышении финансовой инклюзивности и сокращении доли теневой экономики.*

Ключевые слова: *исламская банковская система, исламские финансы, мурабаха, мудараба, мушарака, иджара, шариятский совет, финансовая инклюзия, инвестиции, банковско-финансовые реформы.*

Annotation: *This article analyzes the theoretical and practical aspects of introducing an Islamic banking system in the Republic of Uzbekistan. The study examines the core principles of Islamic finance, international experience, and the legislative reforms adopted in 2025–2026, including the law on the introduction of Islamic banking activity signed by the President on March 27, 2026. The article also proposes recommendations regarding the prospects of implementing the Islamic banking system, existing challenges, and ways to overcome them. The findings demonstrate the potential of Islamic finance to attract investment, enhance financial inclusion, and reduce the share of the shadow economy.*

15-Iyun, 2026-yil

Key words: *Islamic banking system, Islamic finance, murabaha, mudarabah, musharakah, ijara, Sharia board, financial inclusion, investment, banking and financial reforms.*

Kirish

Bugungi kunda jahon moliya tizimida islom banking tobora muhim o‘rin egallab bormoqda. Islom moliyasi instituti foiz (ribo)ni taqiqlash, real aktivlarga asoslangan bitimlar tuzish va tavakkalchilikni adolatli taqsimlash tamoyillariga tayanadi. Dunyo bo‘ylab islom moliyasi aktivlari hajmi sezilarli darajada o‘shib bormoqda, bu esa ko‘plab davlatlarni, jumladan musulmon aholisi ko‘p bo‘lgan mamlakatlarni, o‘z moliya tizimida ushbu yo‘nalishni rivojlantirishga undamoqda.

O‘zbekiston aholisining katta qismi an’anaviy bank xizmatlaridan diniy e’tiqodga ko‘ra foydalanishni istamaydi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi tahlillariga ko‘ra, mamlakatimiz aholisining qariyb 68 foizi va tadbirkorlarning 60 foizi turli sabablarga ko‘ra an’anaviy bank xizmatlaridan foydalanmaydi. Bu holat moliyaviy resurslarning katta qismi norasmiy (yashirin) sektorda qolib ketishiga olib kelmoqda, bu esa o‘z navbatida investitsiya salohiyatining to‘liq amalga oshmasligiga sabab bo‘lmoqda.

Ushbu muammoni hal etish maqsadida O‘zbekiston hukumati islom bank tizimini joriy etish bo‘yicha qat’iy qadamlar tashlamoqda. 2025-yil noyabr oyida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan islom bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qonun loyihasi qabul qilindi, 2026-yil fevral oyida Senat tomonidan ma’qullandi, va nihoyat 2026-yil 27-mart kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolaniib, qonun kuchiga kiritildi. Mazkur qonun bilan Soliq va Fuqarolik kodekslari hamda yana 7 ta qonunga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, islom bank tizimining joriy etilishi mamlakat moliya bozoriga muqobil moliyalashtirish vositalarini olib kiradi, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi va aholining moliyaviy inklyuzivligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur maqolaning maqsadi — O‘zbekistonda islom bank tizimini joriy etishning nazariy asoslarini, hozirgi holatini, istiqbollarini, shuningdek, ushbu sohada mavjud bo‘lgan muammolarni atroflicha tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat: islom bank tizimining nazariy-uslubiy asoslarini o‘rganish; O‘zbekistonda ushbu sohadagi qonunchilik islohotlari va amaliy holatni tahlil qilish; rivojlanish istiqbollarini baholash; mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini taklif qilish.

Islom bank tizimining nazariy asoslari

Islom bank tizimi — bu shariat (islom huquqi) me’yorlari va tamoyillariga muvofiq faoliyat yurituvchi moliyaviy institutlar tizimidir. An’anaviy bank tizimidan farqli o‘laroq, islom moliyasida daromad “pul evaziga pul” shaklida emas, balki real aktivlar (savdo, ijara, foyda va tavakkalchilikni taqsimlash asosidagi hamkorlik) orqali shakllanadi.

15-Iyun, 2026-yil

Asosiy tamoyillar

- Riboning (foizning) taqiqlanishi — islom moliyasida har qanday belgilangan, kafolatlangan foiz stavkasi taqiqlanadi;
- Garar (haddan tashqari noaniqlik) va qimorning taqiqlanishi — bitimlar shartlari aniq va shaffof bo‘lishi shart;
- Real aktivlarga asoslanganlik — har bir moliyaviy bitim moddiy aktiv yoki xizmat bilan bog‘langan bo‘lishi lozim;
- Foyda va zararni taqsimlash — bank va mijoz o‘rtasida tavakkalchilik adolatli bo‘linadi;
- Ijtimoiy adolat va halol faoliyat — alkogol, qimor, chekish kabi harom sohalarni moliyalashtirish taqiqlanadi.

Islom moliyasining asosiy instrumentlari

Xalqaro amaliyotda keng qo‘llaniladigan va O‘zbekiston qonunchiligiga ham kiritilgan asosiy islomiy moliya operatsiyalari quyidagilardan iborat:

- Murobaha (Murabaxa) — tovarni belgilangan ustama bilan bo‘lib-bo‘lib to‘lash asosida sotish orqali moliyalashtirish;
- Muzoraba (Mudaraba) — foyda taqsimlash sharti asosida mablag‘ joylashtiruvchi va tadbirkor o‘rtasidagi hamkorlik;
- Mushoraka (Musharaka) — sheriklik yoki ustav kapitalida ulushli ishtirok etish asosidagi moliyalashtirish;
- Vakala — agentlik shartnomasi asosida mablag‘ jalb qilish yoki joylashtirish;
- Salam — tovarlar uchun oldindan to‘lov asosida moliyalashtirish;
- Ijara — keyinchalik sotib olish huquqi bilan mol-mulkni islomiy lizingga berish.

Xalqaro tajriba

Islom bank tizimi Malayziya, Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari, Bahrayn, Pokiston, shuningdek, Markaziy Osiyo mintaqasida Qozog‘iston kabi davlatlarda muvaffaqiyatli joriy etilgan. Bu davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, islom moliyasi tizimi an’anaviy bank tizimi bilan parallel rivojlanib, moliyaviy bozorning rivojlanishiga, investitsiyalar oqimining ko‘payishiga va aholi jamg‘armalarini rasmiy tizimga jalb qilishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, Qozog‘iston tajribasi an’anaviy banklar uchun islomiy “darcha” ochishga qo‘yilgan ortiqcha cheklovlarning sohaning rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi mumkinligini ko‘rsatadi — bu jihat O‘zbekiston uchun muhim saboq hisoblanadi. Islom Taraqqiyot Banki (Islamic Development Bank) kabi xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik islom moliyasi tizimini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekistonda islom bank tizimini joriy etishning hozirgi holati

O‘zbekistonda islom moliyasi amaliyoti dastlab mikromoliya tashkilotlari va jismoniy shaxslar darajasida notijorat asosda mavjud bo‘lgan. So‘nggi yillarda esa davlat darajasida ushbu sohani institutsionallashtirish bo‘yicha qat’iy qadamlar qo‘yilmoqda.

15-Iyun, 2026-yil

Qonunchilik islohotlari xronologiyasi

Sana	Voqea
2025-yil sentabr	Oliy Majlis Qonunchilik palatasi islomiy bank faoliyatini joriy etish to‘g‘risidagi qonun loyihasini birinchi o‘qishda ma’qulladi
2025-yil noyabr	Qonunchilik palatasi qonun loyihasini to‘liq qabul qilib, Senatga yubordi
2026-yil fevral	Oliy Majlis Senati qonunni ma’qulladi
2026-yil 27-mart	Prezident Shavkat Mirziyoyev qonunni imzoladi; Soliq va Fuqarolik kodekslari hamda 7 ta qonunga o‘zgartirish kiritildi
2026-yil 28-iyun	Qonun rasmiy e‘lon qilingan kundan 3 oy o‘tib kuchga kiradi

Qabul qilingan qonun bilan qonunchilikka “islomiy bank faoliyati”, “islomiy moliya operatsiyalari”, “islomiy moliya standartlari” hamda “investitsiyaviy omonat (depozit)” kabi yangi tushunchalar kiritildi. Islomiy bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi alohida litsenziya joriy etilib, uni olish bo‘yicha aniq talablar o‘rnatildi. Bunda mavjud an’anaviy banklar ham, agar xohlasa, qo‘shimcha litsenziya olib “islomiy darcha” ochishi, yoki to‘liq islomiy bank faoliyatiga o‘tishi mumkin.

Markaziy bank huzurida Islom moliya kengashi tashkil etilishi belgilangan, shuningdek, islom moliya xizmatlarini ko‘rsatuvchi har bir bank tarkibida alohida shariat (islom moliya) kengashlari tuzilishi nazarda tutilgan. Bu kengashlar standartlarni ishlab chiqish, qoidalar tayyorlashda yordam berish, bahsli masalalar bo‘yicha tushuntirish berish va muvofiqlikni nazorat qilish vazifalarini bajaradi. Markaziy bank Islom moliya kengashida kamida beshta islom moliyasi va islom huquqi bo‘yicha oliy ma’lumotga ega, tajribali mutaxassis a’zo bo‘lishi belgilangan.

Islomiy moliya operatsiyalari uchun alohida soliq tartibi o‘rnatildi: sotilgan tovar ustamasiga qo‘shilgan qiymat solig‘i hisoblanmaydi, investitsiyaviy omonatdan olingan daromad soliqdan ozod qilinadi, islomiy ijara shartnomalari moliyaviy ijara va lizingga tenglashtiriladi. Bundan tashqari, islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi banklarga bevosita savdo faoliyatini amalga oshirish hamda yuridik shaxslarning ustav fondlaridagi ulushlarni cheklovlarsiz olish huquqi berildi.

Markaziy bank rahbariyatining ma’lumotlariga ko‘ra, hozirgi kunda 10 dan ortiq tijorat banki islom moliyasi xizmatlarini joriy etishga tayyorgarlik ko‘rmoqda. 2026-yilning o‘zida kamida bitta tijorat bankida “islom darchasi” ishga tushirilishi, 2030-yilga qadar esa kamida 2–3 ta to‘laqonli islom bankining tashkil etilishi rejalashtirilgan. Yangilangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga ko‘ra, islomiy moliyalashtirish ilk bor “O‘zbekiston” bankida 2027-yilda joriy etilishi ko‘zda tutilgan.

15-Iyun, 2026-yil

Islom bank tizimini joriy etishning istiqbollari

Mutaxassislar baholariga ko‘ra, islom bank tizimining to‘liq joriy etilishi O‘zbekiston iqtisodiyotiga sezilarli ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi kutilmoqda. Bu borada quyidagi asosiy istiqbol yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Investitsiyalarni jalb qilish — turli baholarga ko‘ra, islom moliyasi joriy etilishi natijasida mamlakatga yillik 1 milliard AQSH dollaridan 10 milliard AQSH dollarigacha (2026–2030-yillar mobaynida) qo‘shimcha investitsiya va depozitlar jalb qilinishi prognoz qilinmoqda.

2. Moliyaviy inklyuzivlikni oshirish — diniy e‘tiqodi sababli an’anaviy bank xizmatlaridan foydalanmaydigan aholining qariyb 68 foizi va tadbirkorlarning 60 foizi rasmiy moliya tizimiga jalb etiladi.

3. Yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish — islom moliyasi norasmiy sektorda muomalada bo‘lgan mablag‘larni rasmiy bank tizimiga jalb qilishning muqobil mexanizmi sifatida qaraladi.

4. Xorijiy investorlar bilan hamkorlikni kengaytirish — Islom Taraqqiyot Banki, shuningdek, Pokiston va Quvayt kabi davlatlar ishtirokida islomiy qimmatli qog‘ozlar (sukuk) chiqarish imkoniyatlari ko‘rib chiqilmoqda.

5. Kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash — foyda va tavakkalchilikni taqsimlashga asoslangan moliyalashtirish modeli kapitalga ega bo‘lmagan, ammo ishonchli biznes-g‘oyaga ega tadbirkorlar uchun yangi o‘shim imkoniyatlarini yaratadi.

6. Bank xizmatlari assortimentini kengaytirish — islom va an’anaviy bank mahsulotlari bir-biriga raqobatchi emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi xizmatlar sifatida rivojlanib, iste‘molchilarga tanlov erkinligini taqdim etadi.

2026–2030-yillarga mo‘ljallangan rejalarga ko‘ra, kamida 10 ta islom banki ochilishi, uchta davlat banki tarkibida islomiy “darchalar” yaratilishi va kamida 3 ta tijorat bankida islom moliyasi xizmatlari to‘liq joriy etilishi kutilmoqda. Bundan tashqari, Markaziy bank muddatli to‘lov bozorini (BNPL) tartibga solish va islomiy mikromoliya tashkilotlari tushunchasini kiritish bo‘yicha tashabbuslarni ham ilgari surmoqda, bu esa islom moliyasi infratuzilmasining yanada kengayishidan dalolat beradi.

Mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari

Asosiy muammolar

- Malakali kadrlar yetishmovchiligi — islom moliyasi va islom huquqi bo‘yicha chuqur bilimga ega mutaxassislarning, jumladan shariat kengashi a‘zolarining yetishmasligi;
- Qonunosti hujjatlarning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi — asosiy qonun qabul qilingan bo‘lsa-da, uni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan Markaziy bank yo‘riqnomalari va me‘yoriy hujjatlar to‘liq shakllanmagan;
- Soliq tizimidagi nomutanosibliklar — ayrim islomiy moliya operatsiyalarida ikki martalik soliqqa tortish xavfi, mol-mulkni topshirish jarayonlarini tartibga soluvchi aniq mexanizmlarning yetishmasligi;

15-iyun, 2026-yil

- Aholi va tadbirkorlar orasida xabardorlik darajasining pastligi — islom moliyasi mahsulotlari va ularning ishlash mexanizmi haqida yetarli ma’lumotga ega bo‘lmaslik;
- Infratuzilmaviy tayyorgarlik darajasining yetarli emasligi — banklarning ichki nazorat tizimlari, axborot texnologiyalari va shariatga muvofiqlik nazorati mexanizmlarini moslashtirish zarurati;
 - Rasmiyatchilik xavfi — ayrim mutaxassislar bildirgan fikrlarga ko‘ra, islom bank tizimi shakliy jihatdan joriy etilib, mohiyat jihatidan an’anaviy bank mahsulotlaridan farq qilmasligi xavfi mavjud;
 - Xalqaro standartlarga moslashtirish muammosi — milliy qonunchilikni AAOIFI va IFSB kabi xalqaro islom moliyasi standartlari bilan to‘liq uyg‘unlashtirish zarurati.

Bartaraf etish yo‘llari bo‘yicha takliflar

7. Markaziy bank va boshqa vazirliklar tomonidan qonunosti hujjatlarni qisqa muddatda, xalqaro tajribani inobatga olgan holda ishlab chiqish va qabul qilish;
8. Oliy ta’lim muassasalarida, jumladan TATU va boshqa universitetlarda islom moliyasi yo‘nalishi bo‘yicha maxsus ta’lim dasturlari va malaka oshirish kurslarini yo‘lga qo‘yish;
9. Islom moliyasi rivojlangan davlatlar (Malayziya, BAA, Bahrayn) bilan kadrlar almashinuvi va tajriba oshirish dasturlarini kengaytirish;
10. Ikki martalik soliqqa tortishni bartaraf etuvchi va mol-mulkni topshirish jarayonlarini soddalashtiruvchi aniq qonunosti mexanizmlarini ishlab chiqish;
11. Aholi va tadbirkorlar orasida islom moliyasi mahsulotlari bo‘yicha keng qamrovli ma’rifiy-targ‘ibot ishlarini olib borish, jumladan ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar orqali;
12. An’anaviy banklar uchun islomiy “darcha” ochishda ortiqcha tartibga solish to‘siqlarini yaratmaslik, Qozog‘iston tajribasidagi xatolarni takrorlamaslik;
13. Milliy islom moliya standartlarini AAOIFI (Islom moliya institutlari uchun buxgalteriya va audit tashkiloti) va IFSB (Islom moliya xizmatlari kengashi) standartlari bilan uyg‘unlashtirish;
14. Islom Taraqqiyot Banki va boshqa xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni mustahkamlash, texnik yordam va konsultatsiya xizmatlaridan foydalanish.

Xulosa

O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda islom bank tizimini joriy etish obyektiv zaruriyat bo‘lib, u mamlakat aholisining muayyan qismi ehtiyojlarini qondirish, moliyaviy inklyuzivlikni oshirish va investitsion salohiyatni kuchaytirish maqsadlariga xizmat qiladi. 2026-yil 27-martda qabul qilingan qonun bu yo‘nalishda muhim huquqiy asos yaratdi va islohotlarning amaliy bosqichiga o‘tilishini ta’minladi.

Shu bilan birga, qonunning samarali ishlashi ko‘p jihatdan uning amaliyotga to‘g‘ri va sifatli tatbiq etilishiga bog‘liq. Qonunosti hujjatlarning o‘z vaqtida ishlab chiqilishi,

15-Iyun, 2026-yil

malakali kadrlarning tayyorlanishi, aholi xabardorligining oshirilishi va xalqaro standartlarga moslashtirish darajasi — bularning barchasi islom bank tizimining O‘zbekistonda qanchalik samarali va barqaror rivojlanishini belgilab beradi.

Yakun sifatida quyidagi asosiy takliflarni keltirish mumkin:

- qonunosti normativ-huquqiy hujjatlarni xalqaro tajribani inobatga olib, qisqa muddatda ishlab chiqish;
- kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va islom moliyasi bo‘yicha ixtisoslashtirilgan ta’lim dasturlarini joriy etish;
- aholi va tadbirkorlar orasida moliyaviy savodxonlikni, xususan islom moliyasi bo‘yicha bilimlarni oshirish;
- ortiqcha tartibga solish to‘siqlaridan saqlanib, innovatsion yondashuvlarga ochiq muhit yaratish;
- xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish orqali tizimni jahon standartlariga muvofiqlashtirish.

Yuqorida keltirilgan chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi O‘zbekistonda islom bank tizimining barqaror rivojlanishini ta’minlaydi, mamlakat moliya bozorini chuqurlashtiradi va milliy iqtisodiyotning jahon moliya tizimiga integratsiyalashuvini yanada mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-1126-son, 27.03.2026. // Manba: lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy ma’lumotlari. Islomiy moliya kengashi va islom bank faoliyati litsenziyalash tartibi bo‘yicha sharhlar, 2026.
3. Prezident islomiy banklar to‘g‘risidagi qonunni imzoladi // Kun.uz, 28.03.2026. — URL: kun.uz.
4. Islomiy bank faoliyatini tartibga soladigan qonun qabul qilindi // O‘zbekiston banklari assotsiatsiyasi rasmiy sayti, 30.03.2026. — URL: uba.uz.
5. O‘zbekistonda 10 dan ortiq banklar islomiy moliyalashtirishni yo‘lga qo‘yishga tayyorlanmoqda — MB raisi // Gazeta.uz, 25.03.2026.
6. 2026-yilda kamida bitta bankda islomiy “darcha” faoliyati yo‘lga qo‘yiladi // Spot.uz, 25.03.2026.
7. O‘zbekiston islomiy bank tizimini joriy etishga tayyorlanmoqda. Bu nima beradi? // Spot.uz, 13.10.2025.
8. Islomiy bank to‘g‘risidagi qonun yurtimiz amaliyotida yangilik // Yuz.uz, 07.05.2026.
9. O‘zbekistonda islom moliyasini joriy etishning huquqiy va iqtisodiy asoslari // Jurnal: JMMF (Journal of Management and Modern Finance), jmmf.uz.
10. Islamic Development Bank (IsDB) — O‘zbekiston Respublikasi bilan hamkorlik dasturlari bo‘yicha rasmiy ma’lumotlar. — URL: isdb.org.

15-iyun, 2026-yil

11. AAOIFI (Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions) standartlari to‘plami. — URL: aaoifi.com.

12. IFSB (Islamic Financial Services Board) — islom moliya xizmatlari bo‘yicha xalqaro standartlar. — URL: ifsb.org.

13. O‘zbekistonda islomiy moliya joriy qilish boshlandi: maxsus qonun parlament tasdig‘idan o‘tdi // Kun.uz, 25.11.2025.

